

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR AMALIY KO'NIKMALARINI PEDAGOGIK KEYS TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

*QASHQADARYO VILOYATI QARSHI SHAHAR
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI
ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN KAR VA ZAIF
ESHITADIGAN BOLALAR UCHUN 17- SONLI IXTISOSLASHTIRILGAN
MAKTABINTERNATINING TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISI
HUSANOVA GAVXAR OMONOVNA*

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi, o'quvchi-yoshlarning texnik ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning o'ri va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, texnik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, interfaol strategiyalar hamda raqamli texnologiyalarning o'quv jarayoniga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: Texnologiya fani, Interfaol metodlar, STEAM yondashuvi, KEYS texnologiyalar, metodologiya.

Kirish.

Barkamol shaxs tarbiyasida, albatta, mehnat ta'limining alohida o'ri bor. Ushbu o'quv fani o'quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantirish kabi ta'limiy maqsadlarga xizmat qiladi. Maktabdagi texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsadi: o'quvchilarga mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirishdan; o'quvchilarni hozirgi zamon sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohalari asoslari va texnologik jarayonlar bilan tanishtirishdan; o'qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilishdan; ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iborat. I.A.Mannopova, R.A.Mavlonova, N.R.Ibragimovalarning umumiy o'rta ta'lim maktablari 4-sinf Texnologiya darsligida texnologiya so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "Texnologiya" (yunoncha, *teche* – mahorat, *san'at*, *logos* – ta'limot) xom-ashyo va materiallarga tegishli ishlab chiqarish qurollari yordamida ishlov berish yo'llari haqidagi fan. Jumladan, mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad: talabalarni boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni darslarda, shuningdek, sinfdan tashqari texnologiya fanini o'qitish jarayonida nazariy




hamda amaliy tatbiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. O'quvchilarni texnologiya fanini o'zlashtirishga psixologik tayyorlash. Ushbu jarayon murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun texnologiya fani va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani mehnatga psixologik tayyorlash — bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir.

Islahotlarimizdan ko'zlangan maqsad va Prezidentimiz siyosatining bosh omillaridan biri teran fikrlovchi, o'z mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash va tarbiyalashdir. SHuning uchun zamonaviy talablar asosida ta'lim mazmunini boyitish, rivojlangan Evropa davlatlarining o'quv, o'quv - uslubiy, ilmiy - tadqiqot jarayonlari, modulli ta'lim tizimi mohiyati, Evropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni), modulli - kredit tizimi mohiyati, ESTS kreditlari, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari haqidagi pedagogik kadrlarining kasbiy kompetentlik darajasini raqobatbardosh ta'lim tizimi doirasida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan texnologiya bo'lib, o'quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'zo'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, o'quvchilarni amaliy faoliyatga yo'naltirish va ularda texnik ijodkorlikni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Texnologiya fani — o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, muammolarni texnik yecha olishga o'rgatish, ijodiy fikrlashni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash esa mazkur fan samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil izlanishga, konstruktorlik va loyihalash ishlariga jalb etadi. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlar, AKT vositalari, STEAM yondashuvi, loyihaviy va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtiradi, ularda muhandislik tafakkurini shakllantiradi. Shu bois texnologiya fanini yanada rivojlantirish, o'quv jarayonini zamonaviy vositalar bilan boyitish va ijodiy muhit yaratish bugungi ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Texnologiya fani — o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari, texnik tafakkur, ijodkorlik va amaliy faoliyatni shakllantiruvchi ta'lim fanidir. Ushbu fan orqali o'quvchilar buyumlar yaratish, materiallarga ishlov berish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'rganadilar.

Texnologiya fanining asosiy maqsadi.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

- O'quvchilarda mehnatsevarlik va kasbga yo'naltirishni shakllantirish
- Texnik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish
- Amaliy bilim va ko'nikmalarni berish
- Milliy va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish

Texnologiya fanining vazifalari

- Turli materiallar (yog'och, metall, mato, plastmassa) bilan ishlashni o'rgatish

- Texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish
- Chizmachilik va loyihalash asoslarini o'rgatish
- Innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish

Texnologiya fanida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni

1. **Interfaol metodlar** -Interfaol metodlar o'quvchilarni faollashtiradi, ularning dars jarayonida ishtirokini kuchaytiradi

Eng samarali metodlar:

- "Aqliy hujum"
- "Loyihalash texnologiyasi"
- "Klaster"
- "Keys-stadi"
- "6x6x6"
- "Debat va muhokama" texniklari. Bu metodlar texnologiya fani darslarida o'quvchilarni konstruktorlik fikrlashiga, muammoni turli yo'llar bilan yecha olishiga yordam beradi.

2. **Axborot-kommunikatsiya** texnologiyalaridan foydalanish
Texnologiya darslarida quyidagi AKT vositalari keng qo'llanadi:

- 3D-modellashtirish dasturlari (SketchUp, Tinkercad)
- Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar
- Videodarslar va interaktiv platformalar
- CNC dastgohlari bilan ishlashga tayyorgarlik simulyatorlari Bu vositalar o'quvchilarda texnik tafakkur, konstruksiyani tasavvur qilish va loyihalash malakasini oshiradi



3. **STEAM yondashuvi** STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) — innovatsion ta'lim modeli bo'lib, texnologiya fanida quyidagilarga erishishga yordam beradi:

- muammolarni tahlil qilish va yechish
- texnik loyihalar yaratish

- jamoada ishlash

- kreativ yondashuv

STEAM loyihalari orqali o'quvchilar robototexnika, dasturlash, mexanika asoslari bilan tanishadi.

Texnik ijodkorlikni shakllantirish metodlari

1. Loyiha asosida o'qitish Loyihaviy faoliyat o'quvchilarga quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradi:

- konstruktorlik fikrlash

- chizma chizish

- modellar yaratish

- materiallar bilan ishlash madaniyati Masalan, “Yorug‘lik chirog‘ining oddiy modeli”, “Avtomatlashtirilgan signalizatsiya tizimi” kabi kichik loyihalar o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini kuchaytiradi. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlar, AKT vositalari, STEAM yondashuvi, loyihaviy va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtiradi, ularda muhandislik tafakkurini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:2003.
2. Jumaniozova M. Innovation faoliyat tushunchasi va malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovation faoliyatga tayyorlash.// Xalq ta'limi, 2004, 6 son.
3. Jo'raev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv –metodik qo'llanma.-T.: Fan, 2005.
4. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish bosqichlari. // Xalq ta'limi. 1997.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

